

O‘ZBEKISTON SSRDA PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATI VA TIZIMDA KADRLAR MASALASI (1922-1945 yy.)

Insopov Abdugaffor Abdusamadovich

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

E-mail: abdugaffor_nuz@rambler.ru

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining O‘zbekiston SSRda tashkil etilishi, dastlabki yillardagi faoliyati, kadrlar bilan ta‘minlashdagi muammolar, siyosiy qatag‘onlik yillarida prokuratura organlari faolyaiti, prokuratura tizimidagi o‘zgarishlar, qabul qilingan huquqiy hujjatlar, qatag‘on qilingan rahbar va hodimlar, murakkab sharoitda aholining huquq erkinlarini ham himoya qilishdagi ishtiroklari, ikkinchi jahon urushi yillarida olib borgan faoliyatlari hususida so‘z yuritiladi. Bundan tashqari, prokuratura organlari tomonidan mazkur davrdagi qonunchilikni nazoratini amalga oshirishdagi faoliyati bilan bog‘liq ma‘lumotlar tahlili keltirilgan.

***Kalit so‘zlar:** Siyosiy qatag‘onlar, prokuratura, qonunchilik, nazorat, jinoiy ish, qatag‘onlik siyosati, Oliy Sud, mustabid tuzum, imperiya, buyruq, nazorat, bosh prokuror.*

ACTIVITIES OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN THE UZBEKISTAN SSR AND THE ISSUE OF PERSONNEL IN THE SYSTEM (1922-1945)

Insopov Abdugaffor Abdusamadovich

Doctor of Philosophy in History (PhD)

Associate Professor of the Department of "Modern History of Uzbekistan".

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ABSTRACT

This article discusses the organization of the prosecutor's offices in the Uzbek SSR, which exercised control over the implementation of laws, their activities in the early years, problems in providing personnel, the activity of the prosecutor's offices during the years of political repression, changes in the prosecutor's system, adopted legal acts, repressed leaders and employees, their participation in protecting the rights of the population in difficult conditions, and their activities during the Second

World War. In addition, an analysis of data related to the activities of the prosecutor's offices in exercising control over legislation during this period is presented.

Keywords: Political repressions, prosecutor's office, legislation, control, criminal case, policy of repression, Supreme Court, authoritarian regime, empire, order, control, prosecutor general.

KIRISH

Qadim tarixga ega Markaziy Osiyo davlatchiligida o'ziga xos huquq tizimi shakllanganligi tarixiy manbalardan ma'lumdir. Davlatchilik munosabatlari shakllanar ekan jamiyatda qonunlar ijrosini ta'minlash, doimiy nazoratini yuritish maqsadida turli davrlarda turlicha faoliyat yuritdilar turli darajadagi tuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ma'lumki, prokuratura atamasi Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyingi davrda kirib keldi. Turkistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi sud organlariga borib taqalishini e'tiborga olsak ularni tarixi bir biriga uzviy, chambarchas bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasida bu davrga kelib olib borilgan tergov jarayonlari va sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni qonuniyligini nazorat qilishning yagona tizimi mavjud emasligi va mahalliy hokimiyatlar tomonidan chiqarilgan ko'plab noqonuniy qarorlar davlat manfaatlariga zid ekanligi va davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash, ularni ijrosini nazorat qilish boshqaruvda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli prokuratura organlariga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bordi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Umuman olganda Sovet prokuraturasi Oktabr inqilobidan keyin darhol tashkil etilmadi. Prokuratura organlarini tashkil etilishi bilan bog'liq masalalar yaratilgan adabiyotlarda turlicha izohlanadi. Prokuratura organlarini tashkil etilishi bilan bog'lik ma'lumotlarni 3 ta guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh adabiyotlariga Rossiya imperiyasining prokuraturasi mehnatkash halqning bostirishi va ularga shavqatsizlarcha munosabatda bo'lganligi sababli eski tuzumdan qolgan boshqaruvdagi meros sifatida qaralganligi uchun prokuratura organlarini tashkil etilishiga ruxsat berilmaganligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi guruhga esa Oktabr inqilobidan keyin prokuratura organlariga umuman ehtiyoj tug'ilmaganligi ta'kidlab o'tiladi. Bu o'rinda Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qarori bilan "markaziy hukumat farmon va qarorlarining barqaror bajarilishi", "mansabdor shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari to'g'risidagi

arizalarini ko‘rib chiqish”ni nazorat qilish majburiyati asosan XKS nazoratida bo‘lgan. Shu bilan birga davlatda qonuniylikni nazorat qilish bilan TASSR adliya Komissarligi ham shug‘ullandi.

Uchinchi guruh adabiyotlarida esa zarur siyosiy, tashkiliy va huquqiy sharoitlar yo‘qligi sababli prokuratura organlarini tashkil etish masalasini hal etishning amalda imkoni bo‘lmaganligi qayd etib o‘tiladi¹. [1].

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlarni sovet davrida yaratilgan ko‘plab adabiyotlarda uchratish mumkin. Xususan V.R.Mannanov o‘zining tadqiqotlarida prokuratura organlarini tashkil etilishi masalasiga to‘htalib, “Yangi qonun ustuvorligini nazorat qiluvchi maxsus organning darhol tashkil etilmasligining sababi sifatida sovet davlati shakllanishi va mustahkamlanishi davrida yangi huquq tizimi asta-sekin kamolotga erishdi va prokuraturani tashkil etilishi obektiv zarurat sifatida darhol e‘tirof etilmadi” –deb izohlab o‘tadi²[2]. Shu bilan birga, sovet davlatini birinchi bor dunyoda yangi jamiyat yaratish uchun o‘rganilmagan yo‘llarni bosib o‘tganligi, sotsialistik davlat qurilishida tajribaga ega emasligi asosiy mezon qilib olindi va shuning uchun prokuraturani tashkil etish g‘oyasi amaliyotga asoslanib, oktabr inqilobi g‘alabasidan bir necha yil o‘tgach paydo bo‘lishi tabiiy jarayon ekanligi bilan bir qatorda yosh Sovet davlati uchun qonuniylik uchun kurashning to‘plangan inqilobiy tajribasi ekanligiga asosiy e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Milliy arxivi fondidagi O‘zbekiston SSR prokuraturasining R-1710-fondida saqlanayotgan arxiv hujjatlari ma‘lumotlari asosida mavzugaga ko‘ra siyosiy qatag‘onlar boshlangan bir davrda prokuratura organlari faoliyatini tubdan o‘zgartirish va yagona nazorat organiga aylantirish maqsadadi 1933 yil 20 iyunda SSSR Markaziy ijroiya qo‘mitasi va Xalq komissarlari sovetining “SSSR ittifoqi prokuraturasini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi³ [3].

Natijada prokuratura adliya xalq komissarligi ajratib olindi va alohida mustaqil tashkilot sifatida markazning topshiriqlarini bajaradigan tashkilotga aylandi. Shu orqali respublikalar prokuraturalari SSSR prokuraturasiga bevosita to‘g‘rida to‘g‘ri buysunadigan va markazdan ularni faoliyatiga doir ko‘rsatmalar berish shuningdek, ittifoqdosh respublika prokurorlari SSSR prokurori olida hisobot berishi yo‘lga qo‘yildi. Ammo bu bilan prokuraturalar to‘liq mustaqil tashkilot sifati faoliyat olib bormadi. Masalan O‘zbekiston SSR prokurori adliya xalq komissarining o‘rinbosari sifatida faoliyat olib borar va adliya tizimiga kirardi. Faqatgina 1936 yil 20 iyulda

¹ С.Г.Березовская. Прокурорский надзор в советском государственном управления. М., 1954. 107 с.

² В. Р. Маннанов. “Борьба за укрепление социалистической законности в Туркестанской АССР и создание советской прокуратуры, автореферат канд. дисс, Ташкент, 1967, стр. 15.

³ N.T.Yo‘ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent:,-2022. Tamaddun. –B 25.

qabul qilingan Adliya xalq komissariatini tashkil etish to'g'risidagi Markaziy ijroiya qo'mita va Xalk Komissarlari Sovetining qarori qabul qilingandan so'ng prokuratura to'liq adliyadan tarkidan chiqib ketdi va mustaqil faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mazkur mavzuni tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillaridan foydalanib arxiv fondlari hujjatlari va ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, muammoviy-xronologik usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR.

1921-1922 yillarda Adliya Xalq komissari va birinchi Turkiston ASSRning prokurori lavozimida Do'stmuhammad Ustaboyev faoliyat olib bordi. Do'stmuhammad Ustaboyev 1886 yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida tavallud topgan bo'lib otasi kosib-etikdo'zlik bilan shug'ullangan. Do'stmuhammad Ustaboyevdan keyin Adliya Xalq komissari lovozimiga 1922 yilda Bo'taboy Dadaboyev tayinlandi. Namangan viloyatining Chust shahrida 1888 yilda tavallud topgan Bo'taboy Dadaboyev 1922-1923 yillarda Adliya komissari bilan bir qatorda bosh prokurorlik lavozimlarini ham bajaradi⁴. (Keyinchalik Bo'taboy Dadaboyev 1938 yilda qatag'on qilingan)⁵.

Albatta bu davrda sovet davlati qonunchiligini yaxshi tushunadigan va tizimda tajribasi bor bo'lgan prokuratura hodimlari yetishmas edi. Shu sababli mahalliy kadrlardan imkon darajasida foydalanildi.

O'rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy chegaralanish tufayli ittifoq tarkibiga kuruvchi O'zbekiston SSR tashkil topgandan so'ng respublikada Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari, jumladan, adliya organlarini tashkil etish, prokuratura faoliyatiga alohida e'tibor qaratish masalasida ham sezilarni o'zgarishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston SSR tarkibiga kirgan Toshkent, Sarmarqand, Farg'ona, Zarafshon, Xorazm, Surhondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida prokuratura organlarini faoliyatiga yo'lga qo'yish maqsadida tizimda tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirildi. Shuningdek, Tojikiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasini O'zbekiston tarkibiga kiritilishi natijasida bevosita yettita viloyat va bitta avtonom respublikasi prokuraturalari tashkil etildi.

Tashkil etilgan viloyat prokuraturalarida belgilangan shtat jadvaliga asosan viloyat prokurori va uning o'rinbosari, viloyat sudidagi yordamchi, prokuraturaning uchaskadagi yordamchilari faoliyati yo'lga qo'yildi. Toshkent va Samarqand viloyatlarida 8 nafardan, Farg'onada 6, Zarafshon, Xorazm va Qashqadaryo

⁴ Н.Т.Йўлдошев умумий таҳрири остида. Г.Р.Маликова, О.М.Абдураимов ва бошқалар. “Қонунга ҳимоясига ҳаёт баҳшида”. Тошкент:,-2022. Тамаддун. Б-21.

⁵ Н.Т.Йўлдошев умумий таҳрири остида. Г.Р.Маликова, О.М.Абдураимов ва бошқалар. “Қонунга ҳимоясига ҳаёт баҳшида”. Тошкент:,-2022. Тамаддун. Б-21.

viloyatlarida 4 nafardan, Surhondaryoda 3 nafardan, jami 37 nafar prokuror faoliyat olib bordi⁶.

Natijada 20-yillarning o'rtalarida prokuratura organlari tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlashni nazorat qilish yo'lga qo'yilgandan so'ng jamiyatda prokuratura organlari nufuzi sezilarli darajada o'sib bora boshladi.

Prokuratura organlari nufuzini saqlash maqsadida kadrlarni ishga olishda jiddiy talablar qo'yildi. Unga asosan sovet qonunchiligi yaxshi tushunishi lozim bo'lgan hodimlar maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilar va hushmomilalik va sabr-toqatli bo'lish talab etilardi.

Ish jarayonlariga to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida 6 oyga mo'ljallangan ish rejalar ishlab chiqildi va tizimni shu asosda faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu o'z navbatida prokuratura organlari faoliyatida o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu ishlarda respublika davlat prokurori Isxak Gaziyeu hizmatlari katta bo'ldi. Isxak Gaziyeu 1896 yilda Farg'ona viloyati Farg'ona shahrida tavallud topgan bo'lib, 1924 yilning 26 noyabrida O'zbekiston SSR adliya Halq komissari va prokurori lavozimiga tayinlanadi. U o'z faoliyatini 1927 yilga qadar davom ettiradi⁷.

MUHOKAMA.

Respublikada prokuratura organlari faoliyatini keyingi davrlarida turli millat vakillari tomonidan tizim boshqarib kelindi. Xususan; 1927-1930 yillarda Axmadbek Matqulovich Mavlonbekov (1937 yilda qamoqqa olingan va 1938 yilda qatag'on qilingan), 1930-1932 yillarda Sheramat Irmatov, 1932-1933 yillarda esa Eduard Karlovich Sinat (1938 yilda qatag'on qilingan) tomonlaridan boshqarib kelindi⁸. Shuningdek, respublikadagi og'ir ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ya'ni, 1933-1934 yillarda Davronbek Ahmadbekov (1938 yilda qatag'on qilingan) va 1934-1935 yillarda esa Veniamin Modestovich Kibardinlar rahbarlik qilgan bo'lsa 1935-1938 yillarda prokuratura organlari yuridik fanlar doktori, professor Boris Vladimirovich Sheydinga tomonidan boshqarildi. Aynan Boris Vladimirovich Sheydinga rahbarlik qilgan davr stalinning qatag'onlik siyosati davri bilan bog'liq holda kechadi va respublikada qatag'onlik siyosatini amalga oshirishda o'zining "faolligi" bilan ajralib turdi.

O'lkada boshlab yuborilgan qatag'onlik siyosatini amalga oshirishda eng asosiy vazifani bajargan "uchlik"lar tarkibidan joy olgan prokuratura hodimlari ko'plab begunoh insonlarni qatag'on qilinishiga sababchi bo'ldilar. Bu davr prokuratura organlarini tarixidagi qora dog' sifatida muhrlandi. Aynan mana shu yillarda

⁶ Н.Т.Йўлдошев умумий таҳрири остида. Г.Р.Маликова, О.М.Абдураимов ва бошқалар. "Қонунга ҳимоясига ҳаёт баҳшида". Тошкент,-2022. Тамаддун. Б-21.

⁷ Н.Т.Йўлдошев умумий таҳрири остида. Г.Р.Маликова, О.М.Абдураимов ва бошқалар. "Қонунга ҳимоясига ҳаёт баҳшида". Тошкент,-2022. Тамаддун. Б- 22-23.

qatag'onlik siyosati prokuratura organlarida faoliyat yuritib kelgan ko'plab turli millat vakillarini ham o'z domiga tortganligini ko'rish mumkin. NKVD tomonidan olib borilgan noqonuniy tergov jarayonlarini aniqlash, qonunga zib ravishda xibshonalarda begunoh insonlarni ushlab turish, tergov hujjatlarini sohtalashtirish jarayonlari bilan bog'liq holatlar prokuratura organlari tonidan aniqlanishi va holat yuzasidan norozolik kiritilishi natijasida tizim hodimlari ham qatag'on qilinadi. Bunda asosan milliy kadrlar ko'proq jabr ko'radi. Xususan, Oliy Sud prokurori lavozimida ishlagan Badriddin Sharipov (1938 yilda qamoqqa olinib qatag'on qilingan), ilk o'zbek huquqshunos olimi Muhammadjon Mo'minov (1937 yilda qamoqqa olingan va 1938 yilda otib tashlangan) va uning turmush o'rtog'i O'zbekiston SSR prokurori yordamchisi vazifasida faoliyat olib borgan Dilorom Yusupova (turmush o'rtog'i ya'ni Muhammadjon Mo'minovning jinoyatini yashirganlikda ayblanib 1937 yilda qamoqqa olingan), Andijon viloyati Leninsk (hozirgi Asaka) tumani prokurori Ali Hamroboyev (1938 yilda otuvga hukm qilingan), Qoraqalpog'iston ASSR Chimboy tumani prokurori lavozimida ishlagan Mirzaqul Boboyev (1942 yilda nemislar bilan til biriktirganlikda ayblangan va 1943 yilda surgun qilingan), Qashqadaryo okrug prokurori Toshpo'lat Jabborov (1937 yilda qamoqqa olingan), Zomin va Tomdi tumanlari prokurori lavozimida ishlagan Nakib Axmedov (otuvga hukm qilingan) va boshqa ko'plab maxalliy kadrlar qatag'on qilinadi⁹.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, siyosiy qatag'onlik yillarida qariyb 100 dan ortiq prokuratura hodimlari ishdan bo'shatilgan bo'lib, aksariyati ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan va qatag'on qilingan.

Siyosiy qatag'onlik yillarida respublikada prokuratura organlarining tuzilishi qo'yidagicha bo'ldi:

- Kadrlar bo'limi;
- Sud ma'muriy sektori;
- Qamoqda saqlash joylari ustidan nazorat sektori;
- Sud-maishiy sektori;
- Maxsus (Lagerlar) sektori;
- Militsiya sektori;
- Qishloq ho'jaligi sektori;
- Sanoat sektori;
- Savdo Kooperatsiya sektori;
- Fuqarolik bo'limi;

⁹ Н.Т.Йўлдошев умумий таҳрири остида. Г.Р.Маликова, О.М.Абдураимов ва бошқалар. "Қонунга ҳимоясига ҳаёт баҳшида". Тошкент:,-2022. Тамаддун. Б- 32-35.

Murojaatlar bo‘limi;

Kotibiyat;

Buxgalteriya bo‘limlaridan iborat bo‘ldi.

Mana shu davrda jami 389 nafar hodim faoliyat yuritdi. 1937 yilga kelib esa Umumiy nazorat bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yildi¹⁰ [10].

Prokuratura organidir mana shu davrda kolxozlar ish faoliyati bilan bog‘liq jinoyatlarni ham nazorat qilib bordilar.

O‘zbekiston SSR prokurori B.V.Sheydlin tomonidan joylarda prokuratura hodimlari tomonidan o‘rganilgan va aniqlangan kamchiliklar to‘g‘risida O‘zSSR MIK bergan xatida keltirib o‘tiladi. Unda asosiy e‘tibor kolxozlarda ish yuritishni aniq tartibi yo‘qligi sababli kelib chiqayotgan muammolarga e‘tibor qaratiladi. Xususan, kolxoz raislarini bir vaqtning o‘zida hisobchi lavozimlarini ham egallab olganligi tanqid qilinadi va o‘rganishlar natijasida aniqlangan holatlar keltirib o‘tiladi. O‘z shaxsiy manfaatlarin ko‘zlab ish olib borganligi tufayli ko‘plab rayonlarda dalvat mablag‘larin o‘zlashtirish buyicha ma‘lumotlarda Bauman rayoni Yusupov kolxozi raisi Quvondiq Bozorov tomonidan 19156 so‘m, Urgut rayoni Voroshilov kolxozi raisi Tangriqul Salimov 6500 so‘m, Mitan rayoni Voroshilov kolxozi raisi Qubaz Sujunov tomonidan 3359 so‘m mablag‘ni o‘zlatirganligi aniqlangan. Urgut rayonidagi Oxunboboyev, G‘alla orol rayonidagi Zelenskiy, Bashkent rayonidagi Ikromov, Karmana rayonidagi Turkiston, Sverdlov rayonidagi Guliston kolxozlarida ham bu kabi holatlar aniqlanadi¹¹[11]. Bu holatlar shuni ko‘rsatib beradiki, joylarda kolxozlashtirish siyosati amalda umuman talab darajasida bo‘lmaganligi va aniq tartib belgilanmaganligidir.

1938 yilda O‘zSSR prokurori Kuxarenkoni buyrug‘i bilan markaziy apparatda o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Prokuratura tarkibidagi “Ishlar boshqarmasi” va “Moliya” bo‘limlari birlashtirilib O‘zSSR prokuraturasi “Ma‘muriy-moliya boshqarma”si tashkil etiladi. Boshqarma tarkibida esa 2 ta bo‘lim “Bux‘galteriya hisobini boshqarish” va “Ma‘muriy-hujalik ishlari” bo‘limlari tashkil etiladi¹² [12].

1939 yilga kelib Vasiliy Terentyevich Kuxarenko respublika prokurori lavozimiga tayinlandi va bir yil davomida rahbarlik qiladi. 1941 yilda ikkinchi jahon urushi ishtirokchisi hisoblangan SSSR tarkidagi O‘zbekistonda ham prokuratura organlari hodimlariga harbiy safarbarlik e‘lon qilinadi. Bu davrga kelib Fedor Arxipovich Belyayev respublika prokurori sifatida faoliyat olib bordi va 1946

¹⁰ N.T.Yo‘ldoshev umumiy tahriri ostida. G.R.Malikova, O.M.Abduraimov va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent,-2022. Tamaddun. –B.36.

¹¹ O‘zMA R-1710-jamg‘arma, 11-ro‘yhat, 143 -ish, 6- varaq.

¹² O‘zMA R-1710-jamg‘arma, 11-ro‘yhat, 143-ish, 18-varaq.

yilgacha rahbarlik qildi. Aynan urush yillarida prokuratura faoliyatining asosiy mazmuni jamoat tartibini, mehnat va Davlat intizomini, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, sotsialistik mulkni jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilgan urush davridagi qonunlarning bajarilishini nazorat qilishdan iborat edi.

1942-1943 yillarda O‘zbekiston SSR prokuratura organlari xodimlarining etnik va sifat tarkibi¹³[13].

Yillar	Umumiy hodimlar soni	Ma'lumoti				Etnik tarkib			Partiyaviyligi			Ayollar soni	
		oliy	2 yillik kursni	3 oylik kursni	ma'lumot siz	o'zbek	rus	Boshqa millat	VKP a'zoligiga	VLKSM a'zosi	partiyasiz	O'zbek	Boshqa millatlar
1942- 1943 yil	523	133	81	214	83	206	68	247	325	88	108	28	87

Yuqoridagi ma'lumotlarga e'tibor berilsa urush yillarida prokuratura organlari faoliyati og'ir bir vaziftda kechgan bo'lishiga qaramasdan tizimda mahalliy tmillat vakillari bilan bir qatorda boshqa millat vakillari ham salmoqli faoliyat olib borganliklarini ko'rish mumkin. Harbiy holat vaqtida prokuratura organlari frontga harbiy mahsulotlarni yetkazib berish, yordam ko'rsatish va front ortida vaziyatni mustahkamlash to'g'risidagi qonunlarning qat'iy bajarilishini ta'minladi. Urush tufayli prokuratura tizimi va tuzilishi qayta tashkil etilishni talab qilardi. Buning asosiy sababi esa asosiy majburiyat tizim zimmasiga yuklatilgan edi. Shu bilan birga davlatda mehnat va ijro intizomini mustahkamlash maqsadida SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 16 yil 1943 sentabrdagi Farmoni bilan prokuror va tergov xodimlari uchun kiyim-kechak berish bilan birga ularga unvon darajalari berish tartibi ham qabul qilindi, prokuratura tizimida qat'iy tartib intizom o'rnatildi. Respublikadagi ko'plab prokurorlar va tergovchilar armiyaga qo'shilish yoki partizan otryadlariga qo'shilish uchun frontga o'z hohishlari bilan jo'nab ketishdi. Ularning aksariyati fashist bosqinchilari bilan janglarda vafot etdi. Natijada juda katta prokuratura organlarida kadrlarga bo'lgan ehtiyoj oshib bora boshgladi. O'z navbatida respublikada ushbu muammoni hal qilish uchun qisqa muddatli kurslar, kechki smenali o'qishlar tashkil etila boshlandi.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Turkiston ASSRda prokuratura organlarining tashkil topishi tabiiy va zaruriy jarayon edi. Turkistonda

¹³ ЎзМА Р-1710-жамғарма, 13-рўйхат, 4-иш, 28-29 - varaqlar.

prokuraturani shakllantirish jarayoni RSFSR prokuraturasidan biroz oldinroq boshlanganligi sababli qonuniylikni bir xilda va samarali nazorat qilish maqsadida RSFSR prokuraturasi to'g'risidagi qonun hujjatlariga barham berilgan va muvofiqlashtirilgan ayrim nomuvofiqliklar mavjud edi. Tadqiqotchilar tomonidan sovet davrida yaratilgan aksariyat adabiyotlarda sovet prokuraturasi tomonidan oktabr to'ntarishidan keyin katta miqyosda boylarni davlat boshqaruviga aralashuviga, jamiyatdagi nohakliklarga, insonlarga nisbatan ta'ziyq va zo'ravonlikni to'htatishiga, sudlar va prokuratura organlarini noqonuniy harakatlarga barham berilgani bilan izohlanadi. Bu o'z navbatida prokuratura organlari faoliyatini ilmiy jihatdan chuqurroq tadqiq etish dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Bunda albatta siyosiy qatag'onlar alohida prokuratura tarixidagi eng muhim davrlardan biri sifatida tarixga muhrlandi. Mana shunday og'ir bir davrda respublikada prokuratura organlari o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida markazning topshiriqlarini bajarish maqsadida qatag'onlik siyosatini amalga oshirishda muhim mexanizmga aylandilar. Bu o'z navbatida prokuratura organlari faoliyatini salbiy jihatlarini ko'rsatsada, tizim tomonidan nohaq ayblovlar qo'yilgan insonlarni himoya qilish, asossiz chiqarilgan hukmlar bekor qilish bo'yicha protestlarni ham kiritganliklarini ham ko'rsatadi. Natijada jamiyatdagi nohakliklarga qarshi bosh ko'targan ko'plab tizim hodimlari ham qatag'onlikning qurboniga aylandilar. Bundan tashqari Respublikada prokuratura organlarini tashkil qilinishi og'ir ijtimoiy, iqtisodiy davrga to'g'ri kelganligi sababli bu tuzilmalarning faoliyatini yo'lga qo'yish murakkab kechganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida bu davrda huquqiy jihatdan malakali bo'lgan kadrlar bilan ta'minlash masalasi ham eng katta muammolardan biri hisoblanardi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Березовская С.Г. Прокурорский надзор в советском государственном управления. М., 1954. 107 с.
2. Маннанов В. Р. "Борьба за укрепление социалистической законности в Туркестанской АССР и создание советской прокуратуры, автореферат канд. дисс, Ташкент, 1967, стр. 15.
3. Yo'ldoshev. N.T. Umumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent, -2022. Tamaddun. –B 25.
4. Yo'ldoshev. N.T. Umumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. "Qonunga himoyasiga hayot bahshida". Toshkent, -2022. Tamaddun. B- 21.

5. Yo‘ldoshev. N.T.Ymumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent,-2022. Tamaddun. B-21.
6. Yo‘ldoshev. N.T.Ymumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent,-2022. Tamaddun. B-21.
7. Yo‘ldoshev. N.T.Ymumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent,-2022. Tamaddun. B-22-23.
8. Yo‘ldoshev. N.T.Ymumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent,-2022. Tamaddun. B-32-35.
9. Yo‘ldoshev. N.T.Ymumiy tahriri ostida. Malikova G.R, Abduraimov O.M. va boshqalar. “Qonunga himoyasiga hayot bahshida”. Toshkent,-2022. Tamaddun. B-36.
10. O‘zMA R-1710-jamg‘arma, 11-ro‘yhat, 143 -ish, 6- varaq.
11. O‘zMA R-1710-jamg‘arma, 11-ro‘yhat, 143-ish, 18-varaq.
12. O‘zMA R-1710-jamg‘arma, 13-ro‘yhat, 4-ish, 28-29 - varaqlar.